

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 7 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Abduxamidov Islombek

O'ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT MUHOJIRLIGI TARIXI	10-18
--	-------

Фарманова Гульнара Комилевна

ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ	19-24
---	-------

Индиаминова Шоира Амриддиновна

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ	25-29
--	-------

Mirzakhmdamova Dildora Zafarovna

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA FARG'ONA VILOYATIDA IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH	30-35
--	-------

Ismoilova Parvina

TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI)	36-41
---	-------

Jomurodov Lazizbek Islomovich

O'ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH JARAYONI	42-46
---	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ	47-54
---	-------

Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna

VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO'RSATKICHINI OSHIRISHNI TADQIQ QILISH	55-61
--	-------

Mamadaliyev Ulug'bek

JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI	62-69
---	-------

Jalilov Arslon Xoshimovich

TEMIR YO'L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI BAHOLASH	70-75
--	-------

Kamchibekov Farxod Olimjonovich

O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI	76-82
---	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Djurayev Lukmon Narzullaevich

ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING TRANSFORMATSIYALASHUVI	83-87
---	-------

Norkulov Ubaydulla Umarovich

MAHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI

KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI 88-92

Пулатов Шердор Нематёнович

ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАВАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ 93-105

Yusupov Murodali Sunnatovich

O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TIZIMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOIIY-

FALSAFIY MASALALARI 106-110

Suleymanov Sarvar Sunatullayevich

O'ZBEKISTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEXNOLOGIYALARNING

IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI 111-116

Shernazarov Ravshan Avazovich

SIYOSIY E'TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI 117-122

Nasrullayev Ravshanxon Sirojxonovich

VATANPARVARLIKNI IJTIMOIIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI 123-126

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Matkarimova Salomat Ko'ziyevna

ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK 127-133

Tairova Maxfuza Abdusattorovna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAMLUKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING

TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI 134-139

Rahimova Maftuna

LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA 140-143

Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna

O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN

TADQIQOTLAR 144-147

Xursanov Nurislom Iskandarovich

O'ZBEK FRAZELOGIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI 148-154

Umarov Umidjon Akram o'g'li

RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI 155-159

Облокулова Шахло Асрор қизи

ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ 160-164

Nazarova Lola Maqsadilla qizi

KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI 165-170

Umarxonova Dilafruz Murotjonovna

"MARDLIK" VA "QO'RQOQLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI 171-175

Yunusova Ganjina Rustamovna

NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI 176-180

Мусаев Файзулло Оманович

АРАБ ДУНЁСИДА "МАСАЛ" ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ 181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinova</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB " ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LESIKOGRAFIK TAHLILI	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i> TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI	197-201
<i>Икромов Нугина Ойбековна</i> ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ	202-207
<i>Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi</i> NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> "NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIIY POETIKA	214-221
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Саидов Акроб Акмалович</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i> TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	231-237
<i>Умурзаков Жасурбек Қосимжанович</i> КРИПТО-АКТИВЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	238-242
<i>Nurmamatova Noila Doniyorovna</i> KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i> FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i> ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	268-275
<i>Mukumov Bobur</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA TOVAR BELGILARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i> INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKISTON	

RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O'RNI	283-289
---	---------

Калимбетов Ерназар

ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ	290-297
--	---------

Ibrohimov Azimjon Abdumot'min o'g'li

KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAXSLAR JAVOBGARLIGI	298-306
--	---------

Ходжаева Ширин

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ	307-317
--	---------

Маматкулов Камолiddин Галабаевич

ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	318-323
---	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Nazarova Ra'no Sidiq qizi

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	324-329
---	---------

Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI	330-341
--	---------

Hamidova Laylo Kamildjonovna

OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	342-346
---	---------

Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich

MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI	347-357
---	---------

Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi

GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR	358-363
--	---------

Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGLIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA	364-369
--	---------

Jalilov Umidjon Jahongirovich

OG'IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI	370-375
---	---------

Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi

OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	376-381
--	---------

Received: 30 June 2024

Accepted: 5 July 2024

Published: 15 July 2024

Article / Original Paper

THE ROLE OF SPECIAL ECONOMIC ZONES AND SMALL INDUSTRIAL ZONES IN INCREASING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF THE REGIONS OF UZBEKISTAN

Kamchibekov Farkhod Olimjonovich

Scientific researcher of Namangan State University

Abstract. The article examines the role of the activities of Special Economic and small industrial zones in increasing investment flow to regions, in particular Namangan region, as well as the main causes of existing problems. Also analyzed the gross regional product of the region 2019-2023, as well as the share of investments. The article discusses the results of a survey of residents in a small industrial area.

Key words: development strategy of New Uzbekistan, special economic and small industrial zones, engineering and communication networks, gross regional product.

O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI

Kamchibekov Farxod Olimjonovich

Namangan Davlat universiteti ilmiy izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining faoliyati hududlar, xususan Namangan viloyatiga investitsiya oqimini ko'paytirishda tutgan o'rni hamda mavjud muammolarning asosiy sabablarini ko'rib chiqilgan. Shuningdek viloyatning 2019-2023 yillar yalpi hududiy mahsulot hamda investitsiyalar ulushi tahlil qilingan. Maqolada kichik sanoat zonasida rezidentlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonolari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, yalpi hududiy mahsulot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N11>

Kirish. O'zbekiston uchun chet el sarmoyadorlarining mablag'larini jalb etish strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'nalish davlatning iqtisodiy siyosatida muhim o'rin egallaydi.

2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalarning taxminan 80 foizi mahalliy aholi va tadbirkorlar hissasiga to'g'ri keladi. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni taxminan 5000 tani tashkil etadi. Bu korxonalarning qariyb 70 foizi ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatadi.

Ushbu korxonalar Italiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Buyuk Britaniya, Turkiya Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va boshqa mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida tashkil etilgan. [3]

Mamlakatning iqtisodiy shart – sharoitlari chet el investorlari uchun jozibadorligini oshirish va ularni jalb qilish usullaridan biri mamlakat hududida alohida fiskal, sanoat va tarif siyosatiga ega bo'lgan maxsus iqtisodiy hududlar tashkil etish hisoblanadi.

Maxsus iqtisodiy zonalar - bu mamlakatlar hukumatlari tomonidan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksportni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun yaratilgan maxsus hududlardir. O'zbekiston Respublikasida Maxsus iqtisodiy zonalar "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni (17.02.2020 yildagi O'RQ-604-son) bilan tartibga solinadi. Qonunning "Asosiy tushunchalar" to'g'risida 3-moddasida, maxsus iqtisodiy zona tushunchasiga - tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo'lgan hudud deb ta'rif berilgan. [1] Ya'ni maxsus hududda ishlab chiqarish jarayonining yuqori sur'atlariga erishish maqsadida investitsiyalarni xususan, chet el investitsiyalarini jalb etishni jadallashtirish nazarda tutilgan.

Birinchi maxsus iqtisodiy hududlar XVIII asrdan boshlab imtiyozli bojxona tartibida dengiz portlari shaklida keng tarqalgan. Boshqa turdagi maxsus iqtisodiy hududlar XX asrda paydo bo'la boshladi. Birinchi zamonaviy erkin iqtisodiy hudud 1959-yilda Irlandiyadagi "Shannon" aeroportida tashkil etiladi. Shuningdek bu sohada eng muvaffaqiyatli tajribalardan biri Xitoy Xalq Respublikasiga tegishli.[4]

Hozirgi kunda mintaqalarni har tomonlama va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud imkoniyatlaridan unumli va maqbul foydalanishda kichik tadbirkorlik sohasini qo'llab-quvvatlash va qulay biznes muhitini shakllantirish bo'yicha davlat siyosati 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi hamda "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan yo'nalishlarga asoslanib amalga oshirilmoqda.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan strategiyada "Inson qadrini ulug'lash" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada yuksaltirish, iqtisodiyot sohalarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni tezkor rivojlantirish maqsadlari belgilangan. Bu maqsadlarga erishish uchun yettita ustuvor yo'nalish ko'rsatilgan bo'lib, ularning 3 va 4-yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligini taraqqiyotning eng muhim va zaruriy shartiga aylantirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash.

Bugungi kunda mamlakatimiz investitsion jozibadorligini oshirishda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining roli alohida o'rin tutadi.

Kichik sanoat zonasi — ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan, aholi punkti hududining yoki aholi punktlariaro hududning qonunchilik hujjatlari bilan muayyan maqom berilgan hamda hududi doirasida xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaga ega bo'lgan ishlab chiqarish maydonlari joylashadigan va chegaralari aniq belgilangan qismi deb ta'rif beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son

Farmonida “3-maqсад - Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo’naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o’sish sur’atlarini saqlab qolish” [2] yuzasidan faoliyat ko’rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonolari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish bo’yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish yuzasidan, kichik sanoat zonolari ishtirokchilarining zaruriy muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlash, kichik sanoat zonalariga ularning ixtisoslashuvi, hududning resurs salohiyatini inobatga olgan holda, ishlab chiqarishning to’liq siklini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish, investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish va ishtirokchilarga yuklatilgan majburiyatlarning ijrosi yuzasidan tizimli monitoring olib borish hamda kichik sanoat zonolari hududida yangi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishda tijorat banklarining ishtirokini kengaytirish bo’yicha tadbirlar belgilangan.

Mazkur farmon ijrosi munosabati bilan mamlakatimiz hududlarida kichik sanoat zonolari sonining keskin oshirishga erishildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy maqolada ko’tarilgan muammoni atroflicha tahlil qilish, so’rovnoma o’tkazish, tahlil natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, iqtisodiy statistik kabi usullardan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. K.Shodmonqulov o’z maqolasida kichik sanoat zonolari faoliyatini samarali boshqarishda 3 ta tamoyilni ajratgan, bular: Hududning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, davlat va xususiy sherikchilikdan foydalanish hamda davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash tamoyillari. Hududning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishda, joylashtirish masalasida muhimligi bo’yicha ular quyidagicha tartiblashtirilgan: elektr ta’minoti, malakali kadrlar, xomashyo, moddiy transport resurslar bilan ta’minlash. Davlat va xususiy sherikchilikdan foydalanish tamoyilida, iqtisodiyotni, ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik deb qaraydi. Davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash tamoyilida, kichik sanoat zonolari infratuzilmasini barpo etish, soliq va moliyaviy masalalar, mulkiy choralar va boshqa qo’llab-quvvatlash choralarini nazarda tutgan [6]

Kaluga davlat universitetining “Особые экономические зоны” o’quv uslubiy qo’llanmasi mualliflari (Krutikov V.K., Dorojkina T.V.), butun jahon mamlakatlari maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish uchun, kelgusida loyihalarning daromad bilan qaytarilishi hamda turli budjetlarga kapital oqimi kirib kelishini nazarda tutgan xolda, yirik moliyaviy mablag’larni investitsiya qiladi. Iqtisodiyotning muayyan sohalari hamda alohida hududlarga kapital, ayniqsa chet el kapitali oqimini rag’batlantirish bo’yicha to’g’ri tanlangan siyosat, katta iqtisodiy samara va mintaqaning rivojlanishiga yangi turtki berishi mumkin deb fikr bildirgan. [5]

Salimov B.B., Fayzikhodjaeva M.M. va Arslanbekov S.S.lar muallifligidagi “Small industrial zones: a new approach to investment development in the Republic of Uzbekistan” nomli maqolada, Rossiya Federatsiyasi va boshqa mamlakatlar tajribasi, kichik sanoat zonalarini tashkil etishda klaster usulidan foydalanish, sanoat hududining ma’lum bir sohaga ixtisoslashuvi va samaradorligi oshishi bayon etilgan.[7]

Sirojiddinov K.I., Tajibayev K. “Problems Ensuring the Competitiveness of Small Business in Uzbekistan” maqolasida, mamlakatimizda kichik biznesning rivojlanishi bir qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilish bilan bog’liq, xususan: konstitutsiyaviy huquq bilan

kafolatlangan, o'z salohiyati va mulkidan erkin foydalanish, qonun bilan taqiqlanmagan tadbirkorlik va boshqa iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va budget daromadlarini oshirish, aholi bandligi va aholi turmush darajasi sifatini oshirish deb ko'rsatadi.[8]

Tahlil va natijalar. Namangan viloyatida so'ngi 5 yil ichida kichik sanoat zonalarini sonining keskin oshishiga erishilib, bugungi kunda viloyatda 72 ta kichik sanoat zonalarini faoliyat ko'rsatib kelmoqda. [11]

Respublikamiz bo'yicha 2022-yil yanvar – dekabr oylari davomida kichik sanoat zonalarida faoliyat ko'rsatayotgan 2 796 ta korxonalarning asosiy kapitaliga jami 1 663,6 mlrd. so'm investitsiyalar kiritilgan. Shu davr ichida ushbu korxonalar tomonidan jami 6 358,3 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan va 372,8 mlrd. so'm daromad olingan.[9]

Namangan viloyati misolida kichik sanoat zonalarini faoliyati keng yo'lga qo'yilishi natijasida ishlab chiqarish va tadbirkorlik sohasida quyidagi ijobiy o'zgarishlarga erishildi:

- sanoat ishlab chiqarishi yanada rivojlandi;
- innovatsion jarayonlar jadallashtirildi;
- innovatsion muhit yaxshilandi;
- investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari kengaydi;
- shahar markazidagi sanoat korxonalarini shahardan chetga chiqarish orqali

jadal rivojlanuvchi hududlar barpo etildi;


– budgetga pul tushumi tushishini oshirish va budget mablag'lari samarali sarflanishini oshirildi;

– tadbirkorlik rivojlanishi uchun sharoit yaratish va ish o'rinlarini barpo etildi;

– aholi hududlari hamda boshqa belgilanmagan hududlarda sanoat ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirish holatlarining qisqarishi;

– Ko'p yillardan beri ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yish uchun joy masalasining ijobiy echimini topishi.

Namangan viloyatiga 2019 – 2023 yillar davomida investitsiyalar hajmi hamda viloyat yalpi hududiy mahsuloti ko'rsatkichlari quyidagi diagrammada ko'rishimiz mumkin. [12]




1-rasm. Namangan viloyatida 2019 – 2023 yillar davomida yalpi hududiy maxsuloti ko'rsatkichi hamda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (mlrd. so'm)

Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlaridan olingan.

Jadvaldan ko'rinib turibiki O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab – quvvatlash siyosati hamda sohaga oid qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'z samaradorligini bermoqda.

2023-yilga kelib yurtimizda 24 ta maxsus iqtisodiy va 532 kichik sanoat zonalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ularning faoliyati davomida avvaldan ma'lum bo'lmagan ayrim muammo va kamchiliklar yuzaga kelishi, maxsus iqtisodiy zonalarning faoliyatini chuqurroq tahlil qilish va sifat darajasini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etishi, mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni joylarda o'rganish maqsadida, Namangan shaharda joylashgan, 2022-yilda o'z faoliyatini boshlagan “Barkamol avlod” kichik sanoat zonasidagi 120 nafar tadbirkorlik subyektlari, ishchi xodimlari o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilib, natijalarini tahlil qilindi.



2-rasm. Namangan shahardagi “Barkamol avlod” kichik sanoat zonasining faoliyatiga oid tahlillar ko'rsatkichi (2023 y. avgust)

Muallif tomonidan o'rganish natijalaridan kelib chiqib tayyorlangan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumiy ma'noda rezidentlar kichik sanoat zonalarida yaratilgan sharoitlardan mamnun. So'rovnoma jarayonida aniqlangan asosiy muammolar elektr ta'minotidagi uzilishlar, hududda mobil aloqa sifatining pastligi va kanalizatsiya

tizimining ishlamasligidan iborat. Shunga qaramay, sohada quyidagi muammolar hali ham to'liq hal etilmagan:

- Iqtisodiy resurslardan foydalanish uchun tizimli mexanizm yo'qligi;
- Mamlakat ichki bank tizimining to'liq rivojlanmaganligi;
- Yuqori malakali mutaxassislar yetishmasligi;
- Kichik sanoat zonalarini faoliyatini muvofiqlashtiruvchi davlat organlarining vakolat va majburiyatlarini to'g'ri taqsimlashdagi kamchiliklar;
- Xorijiy investorlar uchun mamlakatdagi investitsiya muhiti va hududlar investitsiya salohiyati haqida yetarli axborot resurslari mavjud emasligi;
- Xalqaro iqtisodiy reytinglarda respublikaning yuqori bo'lmagan o'rinlarni egallashi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil etish va zarur sharoitlar bilan ta'minlash bosqichi samarali amalga oshirildi. Endi e'tibor sohadagi mavjud kamchilik va muammolarni tizimli ravishda bartaraf etish, ularning faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha ishlarni tashkil etishga qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ikkinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida mamlakatimizga investitsiya muhitini yanada yaxshilash bo'yicha alohida to'xtalib o'tdi.

Xususan, mamlakatimizda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 12 foizga tushirilgan. Qo'shilgan qiymat solig'ini eksportchi korxonalarga 7 kun ichida qaytarish joriy qilingan, soliq va bojxonada o'zaro hisobga olish yo'lga qo'yilgan. Avvallari investorlar 2 ta alohida tizim orasida sarson edi. Bundan tashqari, xorijiy investorlarning o'z aksiyalaridan oladigan dividendlari uch yil muddatga soliqdan ozod qilingan, ular uchun foyda solig'i 20 foizdan 12 foizga tushirildi. Investorlar uchun zarur bo'lgan 7 mingdan ziyod xomashyo va tovarlarga bojxona bojlari bekor qilindi. Bojxona hududida qayta ishlashning soddalashtirilgan tartibi joriy etildi. Davlatning biznesni tartibga solishga qaratilgan 500 ta funksiyasi bekor qilindi, 70 tasi xususiy sektorga davlat-xususiy sheriklik va autsorsing asosida o'tkazildi. Hozirgi kunga qadar 132 ta litsenziya va ruxsat berishga oid hujjatlar bekor qilindi, 33 tasi bo'yicha xabardor qilish tartibiga o'tildi. Chet ellik investorlar uchun ko'chmas mulk sotib olish, O'zbekistonga kelib-ketish va yashash shartlari keskin soddalashtirildi.[10]

Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatidagi aniqlangan muammolarni samarali hal etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatini rivojlantirish tizimida davlat idoralari va hokimiyat organlari bilan bir qatorda boshqa manfaatdor tomonlar - tadbirkorlar hamjamiyati va aholi ishtirokini ta'minlash;
- Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining ilmiy muassasalar va biznes inkubatorlari bilan hamkorligini kuchaytirish;
- Parlament va mahalliy vakillik organlarining sohadagi nazorat-tahlil faoliyatini kuchaytirish, avvalo davlatning tartibga solish faoliyati ta'siri va qabul qilingan qonunlarning iqtisodiy samaradorligini baholash;
- Eksportga yo'naltirilgan va raqobatbardosh korxonalar faoliyatini kengaytirish uchun zarur sharoitlar yaratish.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, mamlakatda maxsus iqtisodiy zonalarini yanada rivojlantirish maqsadida, ularning faoliyatini empirik yondashuvlar asosida chuqur tahlil qilish,

ma'lumot va tahlillarni umumlashtirish orqali kompleks rivojlantirish strategiyasiga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq. Kichik sanoat zonalari faoliyatini tartibga solish, davlat va boshqa manfaatdor sub'ektlar tomonidan qo'llab-quvvatlash va doimiy rivojlantirib borish bo'yicha yagona qonunchilik hujjatini qabul qilish tavsiya etiladi.

Shuningdek, investitsiyalarni jalb qilish jozibadorligini oshirish maqsadida axborot va ma'lumotlar bazasini kengaytirish orqali chet el ishbilarmonlarini kengroq jalb etish, investitsiya kiritishga to'sqinlik qiluvchi omillarni muhokama qilish, maxsus hududlarga investitsiya kiritish mexanizmlarini takomillashtirish "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining ko'zlangan maqsadlariga to'liq erishish imkonini beradi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni (O'RQ-604-son).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni.
3. "Экономика промышленности" учебное пособие. Джумаев А. Самаркандский институт экономики и сервиса. /Самарканд 2023 г./ стр. 351-360
4. Медведев С.В. "Экономика и социум" №1(10) 2014. Толятинский Государственный Университет (ФГ БОУ ВПО ТГУ) Россия, г. Толяти
5. Krutikov V.K., Dorojkina T.V., Tyutin D.V., Yakunina M.V. "Особые экономические зоны" учебно – методическое пособие. Калужский государственный университет/ Калуга 2016 г./ стр 146
6. K.M. Shodmonqulov, A.A.Adilbekov "Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari", "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" 2023-yil, sentyabr. № 9-sonli. 203-205 betlari.
7. Salimov B.B., Fayzikhodjaeva M.M., Arslanbekov S.S. "Small industrial zones: a new approach to investment development in the Republic of Uzbekistan"/ PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology / PJAE, 17 (6) (2020)
8. Sirojiddinov K. Tajibayev K./ Problems Ensuring the Competitiveness of Small Business in Uzbekistan /Academic Journal of Digital Economics and Stability/ Volume 9, 2021/page 148-153/ <https://e-library.namdu.uz/91%20Halqaro%20jurnallarda%20chop%20etilgan%20maqolalar/157.%20Сирожиiddинов%20Тожибоев.pdf>
9. Агентство статистики при президенте Республики Узбекистан, "Деятельность организаций, входящих в специальную экономическую зону, малую промышленную зону, технопарки и кластеры в Республике Узбекистан"/январь – декабрь 2022 год.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ikkinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimidagi nutqi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti /<https://president.uz/oz/lists/view/6221>
11. Namangan viloyati hokimligining rasmiy veb sayti/<http://t.me/namvilhok>
12. Namangan viloyati statistika borqarmasining 2019-2023 y. byulletenlari

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).